TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	884
Kadirova L.G.	
MAIN DIRECTIONS FOR DEVELOPING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION	887
Nasretdinova Farangis Odilovna	
THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR	895
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI	900
Mustafoev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	906
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	911
Salimova Husniya Rustamovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA	918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIVAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срожиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELII	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	



O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHİYATI



Turayev Ziyadulla Norsoatovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Moliya va turizm kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.f.d.
ORCID: 0009-0006-1668-8833

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston ziyorat turizmi brendini shakllantirishda muqaddas qadamjolarining marketing salohiyati tahlil qilinadi. Bugungi kunda ziyorat turizmi mamlakatning tarixiy-madaniy merosi, ma'naviy qiyofasi va xalqaro turizm imijini shakllantiruvchi muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda ziyorat turizmining marketing, destinatsiya imiji va tashrifchi tajribasi bilan bog'liq jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida muqaddas qadamjolarining aynan milliy turizm brendini yaratishdagi marketing imkoniyatlari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston ziyorat turizmi brendini shakllantirishda muqaddas qadamjolarining marketing salohiyatini aniqlash va baholashdan iborat. Tadqiqotda manbaviy tahlil, mazmuniy tahlil, qiyosiy tahlil hamda tavsifiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil uchun rasmiy turizm portallari, ziyorat maskanlari tavsiflari, marshrut materiallari va targ'ibot matnlari asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, muqaddas qadamjolar, turizm brendi, marketing salohiyati, destinatsiya imiji, ziyorat marshrutlari, raqamli targ'ibot, O'zbekiston turizmi.

Abstract. This article analyzes the marketing potential of sacred sites in shaping the brand of pilgrimage tourism in Uzbekistan. Today, pilgrimage tourism is recognized as one of the important directions contributing to a country's historical and cultural heritage, spiritual identity, and international tourism image. Although previous studies have examined the marketing of pilgrimage tourism, destination image, and visitor experience, the marketing opportunities of Uzbekistan's sacred sites in the formation of a national tourism brand have not yet been systematically explored. The aim of the study is to identify and assess the marketing potential of sacred sites in shaping the pilgrimage tourism brand of Uzbekistan. The research employs source-based analysis, content analysis, comparative analysis, and a descriptive-analytical approach. Official tourism portals, descriptions of pilgrimage sites, route materials, and promotional texts were used as the main sources for analysis.

Key words: pilgrimage tourism, sacred sites, tourism brand, marketing potential, destination image, pilgrimage routes, digital promotion, tourism of Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье анализируется маркетинговый потенциал священных мест в формировании бренда паломнического туризма Узбекистана. В настоящее время паломнический туризм рассматривается как одно из важных направлений, формирующих историко-культурное наследие страны, её духовный облик и международный туристический имидж. Несмотря на то, что в научных исследованиях освещены вопросы маркетинга паломнического туризма, имиджа дестинации и опыта посетителей, маркетинговые возможности священных мест Узбекистана именно в создании национального туристического бренда изучены недостаточно системно. Цель исследования состоит в выявлении и оценке маркетингового потенциала священных мест в формировании бренда паломнического туризма Узбекистана. В исследовании использованы источниковедческий анализ, контент-анализ, сравнительный анализ, а также описательно-аналитический подход. В качестве материалов анализа были использованы официальные туристические порталы, описания паломнических объектов, маршрутные материалы и рекламно-информационные тексты.

Ключевые слова: паломнический туризм, священные места, туристический бренд, маркетинговый потенциал, имидж дестинации, паломнические маршруты, цифровое продвижение, туризм Узбекистана.



KIRISH

Bugungi kunda ziyorat turizmi jahon turizm bozorida diniy-amaliy safar shakligina emas, balki hududning tarixiy-madaniy merosi, ma'naviy qiyofasi va xalqaro tan olinuvchanligini namoyon etuvchi muhim brend resursi sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan O'zbekiston ziyorat turizmi yo'nalishida alohida salohiyatga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi, chunki bu yerda ko'plab muqaddas qadamjolar, allomalar maqbaralari va tarixiy ziyorat maskanlari jamlangan bo'lib, ular milliy turizm mahsulotini shakllantirishda muhim tayanch vazifasini bajarishi mumkin. So'nggi yillarda mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasining ilgari surilishi, ziyorat obyektlarini yagona yo'nalish sifatida targ'ib qilish hamda ularni ichki va xalqaro bozorda faol ilgari surishga qaratilgan tashabbuslar mazkur mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda [1].

Mavzu yuzasidan mavjud ilmiy tadqiqotlarda ziyorat turizmining marketing kommunikatsiyalari, destinatsiya imiji, diniy meros obyektlarida tashrif buyuruvchi tajribasini boshqarish kabi jihatlar keng qamrovda o'rganilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida muqaddas qadamjolarining milliy ziyorat turizmi brendini shakllantirishdagi marketing resursi sifatidagi salohiyatini yanada chuqur va tizimli tadqiq etish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Shu ilmiy imkoniyatdan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston ziyorat turizmi brendini shakllantirishda muqaddas qadamjolarining marketing salohiyatini aniqlash va baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ziyorat obyektlarining brend yaratishdagi o'rni, ularning jozibadorlik omillari, amaldagi targ'ibot yondashuvlari hamda xalqaro bozorda pozitsiyalash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda muqaddas qadamjolar faqat diniy meros yoki tarixiy obyekt sifatida emas, balki milliy turizm brendining strategik marketing aktivsi sifatida talqin etiladi. Ishning nazariy ahamiyati ziyorat turizmi, destinatsiya brendingi va marketing salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashtirishda namoyon bo'lsa, amaliy ahamiyati O'zbekistonning xalqaro turizm imijini kuchaytirish, maqsadli auditoriyaga mos targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish va muqaddas qadamjolar asosida raqobatbardosh ziyorat turizmi brendini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi ilmiy tadqiqotlarda ziyorat turizmi nafaqat an'anaviy tashrif harakati, balki raqamli kommunikatsiya, auditoriya xulqi va tajriba almashinuvi bilan chambarchas bog'liq hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Xususan, M. Caber, N. Drori, T. Albayrak va B. Simonetti diniy turistlarning ijtimoiy tarmoqlardagi xulqini o'rganib, bu yo'nalish adabiyotda yetarli darajada yoritilmaganini ko'rsatadi. Mualliflar diniy turistlarning safar taassurotlarini ijtimoiy tarmoqlarda ulashish niyati foydalilik va qulaylik haqidagi tasavvurlar bilan bog'liqligini, bundan tashqari, religiozlik darajasi ham ushbu xulqqa ta'sir qilishini aniqlagan. Mazkur yondashuv ziyorat turizmida marketing kommunikatsiyasini zamonaviy raqamli platformalar, maqsadli auditoriya segmentatsiyasi va kontent strategiyasi bilan uyg'un holda ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi [3].

Ziyorat turizmini hududiy rivojlanish va xizmatlar tizimi bilan bog'liq holda o'rgangan tadqiqotlarda esa muqaddas maskanlar atrofidagi funksional muhitga alohida e'tibor qaratiladi. A. Molaei Shiya mazhabi madaniyati doirasidagi ziyorat shaharlari misolida muqaddas qadamjolar faqat diniy markaz emas, balki ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va servis jihatlarini o'zaro tutashadigan murakkab makon ekanini asoslaydi; shu sababli ziyorat turizmini rivojlantirishda maskanning maqomi bilan birga transport, joylashtirish, xizmat ko'rsatish va shahar muhitini uyg'un rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi [4].

So'nggi yillarda adabiyotlarda tashrif buyuruvchilar tajribasini boshqarish masalasi ham kuchaygan. K. Pande va A. Kumar diniy meros obyektlarida tashrif buyuruvchi tajribasini o'rganib, avvalgi izlanishlarning katta qismi asosan xristian va musulmon ziyorat maskanlariga qaratilganini, shu bois boshqa kontekstlar bo'yicha umumlashtiruvchi boshqaruv yondashuvlari yetishmasligini qayd etadi; ular xizmat sifati, muhit, ma'naviy taassurot va tashkiliy qulayliklar birgalikda ziyorat obyektlarining jozibadorligini belgilashini ko'rsatadi [5].

O'zbekiston kontekstiga bevosita yaqinlashgan tadqiqotlardan biri F.J. Eitzenberger va T. Thimm ishidir. Mualliflar O'zbekiston destinatsiya imiji rezidentlar va tashrif buyurmagan xorijiy auditoriya tasavvurida sezilarli darajada farqlanishini aniqlab, mamlakatni xalqaro bozorda samarali pozitsiyalash uchun maqsadli marketing kompaniyalari zarurligini asoslaydi [6]. Mazkur tadqiqotlar ziyorat turizmining kommunikativ, hududiy, tajribaviy va imijiy jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida muqaddas qadamjolarining aynan milliy ziyorat turizmi brendini shakllantiruvchi marketing aktivsi sifatidagi salohiyati alohida va kompleks tahlil qilinmagan. Shu jihatdan mazkur mavzu mavjud ilmiy yondashuvlarni davom ettiradi, biroq e'tiborni umumiy ziyorat oqimiga emas, balki muqaddas qadamjolarining brend yaratishdagi strategik imkoniyatlariga qaratishi bilan farqlanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda manbaviy tahlil, mazmuniy tahlil, qiyosiy tahlil hamda tavsifiy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Mazmuniy tahlil turizmga oid matnlar, vizual materiallar va kommunikativ birliklarni tizimli ravishda o'rganish imkonini beradigan usul bo'lib, destinatsiya haqidagi axborotning qanday shakllantirilishini aniqlashda samarali metod hisoblanadi [7]. Shu asosda O'zbekiston ziyorat turizmiga oid rasmiy turizm portallari, muqaddas qadamjolar tavsiflari, marshrut materiallari, targ'ibot matnlari hamda raqamli axborot vositalarida berilgan materiallar tahlilga jalb etildi.

Tahlil jarayonida muqaddas qadamjolarining tarixiy-diniy nufuzi, turistik jozibadorligi, vizual ifodalanishi, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi, ko'p tilli axborot mavjudligi, raqamli maydondagi ko'rinishchanligi va brend hosil qiluvchi ramziy xususiyatlariga e'tibor qaratildi. Har bir obyekt bo'yicha taqdim etilgan axborotning mazmuni, uslubi va marketing nuqtayi nazaridan ta'sir kuchi qiyosan baholandi. Bunda destinatsiyaning tashqi auditoriyaga qanday obrazda namoyish etilishi alohida ahamiyat kasb etdi, chunki turizm marketingida veb-platformalar orqali uzatilayotgan matn va tasvirlar mamlakat yoki maskanning tashqi imijini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [8].

Tahlil natijasida muqaddas qadamjolarining qaysi jihatlari O'zbekiston ziyorat turizmi brendini mustahkamlashga xizmat qilishi, qaysi jihatlari esa qo'shimcha marketing yondashuvlarini talab qilishi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan mazmuniy tahlil natijasida O'zbekiston ziyorat turizmi brendi hozircha eng avvalo muqaddas maskanlarning tarixiy-diniy nufuzi orqali shakllanayotgani aniqlandi. Rasmiy Uzbekistan.travel materiallarida ziyorat obyektlari alohida toifa sifatida beriladi, hududlar bo'yicha turli qadamjolar ketma-ket taqdim etiladi, shuningdek Toshkent shahri uchun asosiy ziyorat obyektlarini birlashtirgan tayyor marshrut ham taklif etiladi. Xususan, rasmiy manbada "Tourist route through the main pilgrimage objects of Tashkent" nomi bilan 7 asosiy obyekt kiritilgan yo'nalish ko'rsatilgan bo'lsa, "Ziyarat places" bo'limida Namangan, Andijon va boshqa hududlardagi qadamjolar alohida materiallar orqali yoritiladi. Bu holat O'zbekiston ziyorat turizmi brendining bitta markazga emas, balki ko'p markazli, hududlararo va marshrutlashga tayanuvchi model asosida rivojlanayotganini ko'rsatadi [9].

Shu bilan birga, tahlil shuni ham ko'rsatdiki, amaldagi targ'ibotda muqaddas qadamjolarining tarixiy tavsifi, diniy maqomi va me'moriy qiyofasi samarali ifodalanmoqda, shu bilan birga tashrifchi tajribasi, hissiy jalb etish, yodda qoluvchanlik va qayta tashrifga undovchi elementlarni yanada boyitish imkoniyatlari mavjud. Heritage destinatsiyalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar aynan autentiklik, jalb etilish va tajriba sifati destinatsiya imijini kuchaytirishini, ijobiy imij esa qoniqish, tavsiya va qayta tashrif niyatiga ta'sir qilishini ko'rsatadi. E'tiqod sababli sayohat qiladigan turistlar haqidagi tadqiqotlar ham ijtimoiy-hissiy yaqinlik va ta'sirli obraz potensial sayyohning safar niyatini shakllantirishda muhimligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston ziyorat turizmi brendining hozirgi kuchli tomonlaridan biri muqaddas merosning ishonchli va boy mazmuni, shu bilan birga bu mazmunni zamonaviy marketing hikoyasi va tajribaviy qadriyatga yanada chuqurroq aylantirish istiqbollari mavjud (1-jadval) [10].

1-jadval. O'zbekiston ziyorat turizmi brendini shakllantirishda muqaddas qadamjolarining marketing salohiyati bo'yicha asosiy natijalar¹

Tahlil yo'nalishi	Aniqlangan holat	Brend nuqtayi nazaridan xulosa
Hududiy qamrov	Ziyorat obyektlari turli hududlar kesimida berilgan, faqat bitta markaz bilan cheklanmaydi	Brendni milliy miqyosda, ko'p markazli destinatsiya sifatida qurish mumkin
Marshrutlash darajasi	Ayrim hududlar, jumladan Toshkent, Samarqand bo'yicha tayyor ziyorat marshrutlari mavjud	Alohida obyekt emas, balki tayyor safar mahsuloti sifatida targ'ibotni kuchaytirish mumkin
Tarixiy-diniy mazmun	Qadamjolarining diniy maqomi va tarixiy tavsifi kuchli yoritilgan	Brendning asosiy semantik yadrosi muqaddaslik va merosga tayangan
Vizual va hissiy taqdimot	Tarixiy tasvir kuchli, ammo tajriba va hissiy yaqinlik kamroq ochib berilgan	Marketingda "ziyosat tajribasi" va "esda qoluvchan safar" komponentlarini kuchaytirish zarur
Xalqaro jozibadorlik	Kontent xorijiy auditoriyaga yo'naltirilgan materiallar bilan qo'llab-quvvatlanadi	Tashqi bozor uchun brend eksporti imkoniyati mavjud
Strategik zaif nuqta	Obraz bor, ammo yagona brend hikoyasi barcha obyektlarda bir xil darajada sezilmaydi	Milliy ziyorat brendi uchun yagona kommunikativ platforma zarur

1 Manba: muallif ishlanmasi



Jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekiston ziyorat turizmi brendi asosan muqaddas qadamjolarining tarixiy-diniy nufuzi va hududiy rang-barangligiga tayangan holda shakllanmoqda. Tahlil natijalari ayrim obyektlar bo'yicha tayyor marshrutlar va xalqaro targ'ibot imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatsa-da, yagona brend hikoyasi hamda tashrifchi tajribasini kuchliroq ifodalash zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, hissiy jalb etish, esda qoluvchan obraz yaratish va ziyorat safarini yaxlit turistik mahsulot sifatida taqdim etish brendning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, muqaddas qadamjolarining marketing salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarish uchun ularni umumiy kommunikativ platforma va zamonaviy targ'ibot yondashuvlari asosida birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston ziyorat turizmi brendini shakllantirishda muqaddas qadamjolar yuqori marketing salohiyatiga ega ekanini ko'rsatdi. Ularning tarixiy-diniy nufuzi, hududiy keng qamrovi, ma'naviy qadriyati va xalqaro miqyosda qiziqish uyg'otish imkoniyati mamlakatni ziyorat turizmi bo'yicha raqobatbardosh destinatsiya sifatida ilgari surishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlil davomida ziyorat obyektlarining rasmiy targ'ibotda yetarli darajada yoritilayotgani, biroq ularning aksariyati hali yagona milliy brend konsepsiyasi doirasida to'liq integratsiyalanmaganligi aniqlandi. Ayniqsa, muqaddas qadamjolarining tarixiy tavsifi va diniy maqomi kuchli ifodalangan bo'lsa-da, tashrifchi tajribasi, hissiy jalb etish, esda qoluvchan brend hikoyasi va qayta tashrifga undovchi marketing unsurlari nisbatan sust rivojlangan.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston ziyorat turizmi brendini mustahkamlash uchun muqaddas qadamjolarini alohida obyekt sifatida emas, balki o'zaro bog'langan yagona ziyorat makoni va yaxlit turistik mahsulot sifatida targ'ib qilish zarur. Bunda hududlararo marshrutlarni kuchaytirish, ko'p tilli raqamli kontentni rivojlantirish, ziyorat tajribasini hissiy va madaniy jihatdan boyituvchi kommunikativ yondashuvlarni qo'llash hamda milliy brendning umumiy konseptual obrazini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, muqaddas qadamjolarining marketing salohiyatidan samarali foydalanish O'zbekistonning xalqaro turizm imijini kuchaytirish, ziyorat oqimini ko'paytirish va milliy turizm brendini barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-338-son qarori ("Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasi)/ <https://lex.uz/uz/docs/-6137065>
2. Štefko, R., Kiráľová, A., Mudrík, M. Strategic Marketing Communication in Pilgrimage Tourism; Eitzenberger, F. J., Thimm, T. Perception disparity: Analyzing the destination image of Uzbekistan among residents and non-visitors; Pande, K., Kumar, A. Managing visitor experience at religious heritage sites.
3. Caber, M., Drori, N., Albayrak, T., Simonetti, B. Determinants of religious tourists' social media usage behaviour // *Current Issues in Tourism*. — 2024. — Vol. 27, No. 23. — P. 4276–4292. — URL: <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/13683500.2023.2278747> — DOI: 10.1080/13683500.2023.2278747.
4. Molaei, A. Strategies of religious tourism in Iranian and Islamic cities approaching Shiite pilgrimage culture // *Contemporary Islam*. — 2023. — Vol. 17. — P. 67–94. — URL: <https://doi.org/10.1007/s11562-022-00510-9> — DOI: 10.1007/s11562-022-00510-9.
5. Pande, K., Shi, F. Managing visitor experience at religious heritage sites // *Journal of Destination Marketing & Management*. — 2023. — Vol. 29. — Article 100800. — URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2212571X23000392> — DOI: 10.1016/j.jdmm.2023.100800.
6. Eitzenberger, F. J., Thimm, T. Perception disparity: Analyzing the destination image of Uzbekistan among residents and non-visitors // *Journal of Destination Marketing & Management*. — 2024. — Vol. 34. — Article 100946. — URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212571X24000945> — DOI: 10.1016/j.jdmm.2024.100946.
7. Camprubí, R., Coromina, L. Content analysis in tourism research // *Tourism Management Perspectives*. — 2016. — Vol. 18. — P. 134–140. — DOI: 10.1016/j.tmp.2016.03.002.
8. Govers, R., Go, F. M. Projected Destination Image Online: Website Content Analysis of Pictures and Text // *Information Technology and Tourism*. — 2005. — Vol. 6, No. 1. — P. 13–30.
9. Tourist route through the main pilgrimage objects of Tashkent // *Uzbekistan.travel*. — URL: <https://uzbekistan.travel/en/o/tourist-route-through-the-main-zierat-objects-of-tashkent/>; Ziyarat places // *Uzbekistan.travel*. — URL: <https://uzbekistan.travel/en/c/ziyarat-places/>; Tourist routes // *Uzbekistan.travel*. — URL: <https://uzbekistan.travel/en/c/tourist-routes/>
10. Uslu, A., Recuero-Virto, N., Eren, R., Blasco-López, M. F. The role of authenticity, involvement and experience quality in heritage destinations // *Tourism & Management Studies*. — 2024. — Vol. 20, No. 3. — P. 79–91. — DOI: 10.18089/tms.20240306; Joo, D., Cho, H., Woosnam, K. M. Anticipated emotional solidarity, emotional reasoning, and travel intention: A comparison of two destination image models // *Tourism Management Perspectives*. — 2023. — Vol. 46. — Article 101075. — DOI: 10.1016/j.tmp.2023.101075.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>